



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN:

YER RESURSLALARINI  
BOSHQARISH

MAVZU  
**02**

TIZIMLI INTEGRATSIYON BOSHQARISH.  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YAGONA  
YER FONDI-BOSHQARISH OB'EKTI  
SIFATIDA



RO'ZIBOYEV S.B.



Yer resurslarini boshqarish  
kafedrasи dotsenti, PhD



## Reja:

- 1. Tizimli integratsiyon boshqarish.**
- 2. O'zbekiston respublikasi yagona yer fondi-boshqarish ob'ekti sifatida**

Boshqarish tizimini tashkil etish va unga ta'sir etish jarayoni sifatida tizimlar tushunchasini ko'rib chiqish ko'zda tutiladi. Tizim (grekchadan sistema) – qismlardan tuzilgan bir butun, yaxlit; bir-biri bilan ma'lum munosabatda va bog'liqlikda bo'lgan, ma'lum bir yaxlitlikni, birlikni tashkil etuvchi birikma, ko'p sonli elementlar to'plamidir

Tizim deganda ma'lum munosabatda, aloqada bo'lgan va bir–birlari bilan bog'lik, o'zlarinig birligida o'ziga xos yaxlitlik, birlikni yaratuvchi ko'p sonli elementlar tushuniladi. Bu yerda shuni qayd qilish muhimki, tizimning umumlashgan xususiyati uni tashkil etuvchi alohida elementlar xususiyatlarining umumiyligi yig'indisi bilan bir xil bo'lmaydi, bu–faqatgina ushbu tizim uchun xos bo'lgan sifat jihatdan yangi xususiyatdir. Har qanday tizimning o'ziga xos bo'lgan xususiyati shundan iboratki, har bir element teskari aloqalar mavjud bo'lgandagina uning xususiyatiga ta'sir qiladi, yaxlitlik bo'lganida tizim sifatidagi ko'pgina xususiyatlar, shu bilan birga, uni tashkil etuvchi elementlarning xususiyatlari yo'qotiladi. Ushbu o'zaro bog'liq elementlar majmuasining mavjud bo'lishi tizimning umumiyligi maqsadga erishishiga yo'naltirilgan.

# KONSTITUTSIYA

*O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasining 68-  
moddasida yer, yer osti boyliklari,  
suv, o'simlik va hayvonot  
dunyosi hamda boshqa tabiiy  
zaxiralar umummiliy boylikdir,  
ulardan oqilona foydalanish zarur  
va ular davlat muhofazasida  
ekanligi ta`kidlangan.*

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*



# HUQUQIY MANBALAR



# **Yer munosabatlari**

## **YER MUNOSABATLARI**

– bu jamiyatda davlat hokimiyat organlari hamda yuridik va jismoniy shaxslar o’rtasida yerdan foydalanish, taqsimlash va muhofaza qilish bo'yicha vujudga keluvchi hamda yer qonunchiligi me'yorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir.

## **YERGA OID HUQUQIY MUNOSABATLAR**

- yer ajratish, uni muhofaza qilish va undan foydalanish yuzasidan davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, fuqarolar o’rtasida kelib chiqadigan yer huquqi normalari orqali tartibga solinadigan ijtimoiy munosabat turidir.

# QONUN XUJJATLARI

## I. Qonunchilik xujjatlari

O‘zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasi,  
O‘zbekiston Respublikasi  
qonunlari,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi palatalari  
qarorlari

## II. Qonun osti hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti farmonlari,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi  
qarorlari,  
Vazirlik va davlat  
qo‘mitalari hujjatlari,  
mahalliy davlat hokimiyati  
organlari qarorlari


# QONUN XUJJATLARI

**Yer resurslarini  
boshqarish va yer  
munosabatlari  
siyosatini belgilovchi  
qonun turlari**

umumiyligida  
ahamiyatdagidagi  
qonunlar

maxsus ahamiyatga  
ega qonunlar

muhofaza etuvchi  
ahamiyatga ega  
qonunlar



- Ўзбекистон Республикасининг маъмурий чегарасидаги умумий ер майдони 2022 йил
- 1 январ ҳолатига **44896,9** минг гектарни ташкил қилади. Республика бўйича корхона, ташкилот, муассасалар, фермер хўжаликлари ва фуқароларнинг фойдаланишидаги жами ерлар **44410,3** минг гектарни, шундан суғориладиган ерлар эса **4314,4** минг гектарни ёки умумий ер майдонининг **9,7** фоизини ташкил қилади.
- Ўзбекистон Республикаси ер фонди ерлардан фойдаланиш мақсади ва тартибига кўра ўзига хос ҳусусиятларга эга бўлиб, улар Ўзбекистон Республикаси Ер кодексининг 8-моддасига биноан
- **8 та** тоифага бўлинади.
- Ер фондининг тоифалари бўйича тақсимланиши 1.1-жадвалда кўрсатилган.

# РЕСПУБЛИКА ЕР ФОНДИ



Схема расположения базовых GPS-станций



# Respublika yer fondi 8ta kategoriya (toifa)bo'linadi.

**Yer toifasi**- bu yer fondining aniq maqsad uchun ajratilgan va foydalanish, muhofaza qilish bo'yicha aniq huquqiy maqomga ega bo'lgan qismidir.

**Yer turlari-** bu aniq xo'jalik maqsadlari yo'lida muntazam foydalaniladigan yoki foydalanishga yaroqli va bir-biridan o'zining tabiiy tarixiy xususiyatlar va belgilari bilan farq qiladigan yer bo'laklaridir.

**Yerdan oqilona foydalanish deb,** undan xalq xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga mos keladigan va maqsadga erishishning samaradorligini ta'minlaydigan, tabiatning boshqa omillari bilan optimal ta'sirda bo'ladigan hamda uni har tomonlama muhofaza qiladigan darajadagi foydalanishga aytiladi.

## **Yerdan oqilona foydalanish muammosi quyidagi asosiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi:**

- Yerdan samarali foydalanish va uning unumдорligini oshirish:
- Yerni yaxshilash uchun maxsus tadbirlar o'tkazish:
- Qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlarni o'zlashtirish:
- Tuproq erroziyasiga qarshi kurashish:
- Yerdan xo'jasizlarcha foydalanishdan va sifati pasayishidan muhofaza qilish.

# O'zbekiston Respublikasi yer fondi. 01.01.2022

2022йил 1январ

T/ p	Yer fondi toifalari	Umumiy yer maydoni		Shu jumladan, sug'oriladigan yerlar	
		jami	Foiz hisobida	jami	Foiz hisobida
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	20469,1	46,10	4212,8	9,49
2	Aholi punktlari yerlari (shaharlar,shaharchalar)	221	0,49	50,2	0,11
3	Sanoat,transport,aloqa,mudofaava boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	896,2	2,02	12,4	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	76,0	0,17	0,9	0,002
5	Tarixiy –madaniy ahamiyatga molik yerlar	9,2	0,02		
6	O'rmon fondi yerlari	9630,0	21,68	31,4	0,07
7	Suv fondi yerlari	831,4	1,87	4,6	0,01
8	Zahira yerlar	12277,4	27,65	2,1	0,004
	Jami yerlar	44410,3	100,0	4314,4	9,71

# Массивнинг ер фонди

	Ер турлари	Умумий майдони, га	Умумий майдонга нисбатан % ҳисобида	Қишлоқ хўж. нисбатан, % ҳисобида
1.	<b>Ҳайдалма ерлар:</b> Шу жумладан:суғориладиган	470.3	38.4	85.6
2.	<b>дарахтзорлар, жами:</b> Шу жумладан : <b>Боғлар</b> <b>Узумзорлар</b> <b>Тутзорлар</b>	42.7 11.3 25.1	3.5 0.9 2.0	7.8 2.1 4.6
	<b>Жами қишлоқ хўжалик ер турлари</b>	549.4	44.9	100
3.	Томорқа ерлари	309.6	25.3	
4	Ихота дараҳтлари	0.4	0.04	
5.	Ариқ, каналлар ва зовурлар	74.1	6.1	
6	Йўллар	25.8	2.1	
7.	Қурилишлар, кўчалар, саройлар ва майдонлар	53.3	4.4	

# Normativ-huquqiy hujjatlar

Yer munosabatlarini tartibga solishda va yer monitoringi, yer tuzish va yer kadastrini yuritishda bir necha normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilinadi, ularni o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi:

**1. Normativ-huquqiy (*Nizom va ustavlar*)**

**2. Me`yoriy-texnik (*standartlar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatma va normativlar*)**

# Qonun hujjatlarining mazmuni

## Yerga oid qonunchilik xujjatlarida

- yerdan oqilona foydalanish bilan bog'liq yer munosabatlari qoidalarining talablari, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta`minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning maqsad va vazifalari, ob`yekt va sub`yektlari, yer uchastkasi huquqiy maqomi, yuridik va jismoniy shaxslar, vakolatli davlat hokimiyat organlari huquq, majburiyatlari kafolati, yer qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik choralari belgilangan.

## Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari

- ✓ hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish;
- ✓ tuproq unumdorligini tiklash va oshirish;
- ✓ tabiiy muhitni asrash va yaxshilash;
- ✓ xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
- ✓ yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilish;
- ✓ yer munosabatlarini tartibga solish;
- ✓ bu sohada qonuniylikni mustahkamlashdan iborat.

## **Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar.**

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi.(43-modda)

Haydaladigan yerlar,pichanzorlar, yaylovlari, tashlandiq yerlar,ko'p yillik daraxtlar egallangan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi.

# **Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy tamoyillari**

- 1. Eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish;**
- 2. Yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta`minlash;**
- 3. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarning, eng avvalo sug‘oriladigan yerlarning alohida muhofaza etilishini, kengaytirib borilishini hamda ulardan qat`iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta`minlash;**
- 4. Qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlash;**

## **Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy tamoyillari**

- 5. Yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik havfsizlikni ta`minlash;**
- 6. Yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliliginin ta`minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;**
- 7. Yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lash;**
- 8. Yerlarning holati haqidagi axborotning to‘liq bo‘lishini hamda undan erkin foydalanishga yo‘l qo‘yilishini ta`minlash.**

## Adabiyotlar:

1. Rahmonov Q.R., Narbayev Sh.K., Muqimov Z.M. Yer resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: TIQXMMI, 2019. – 154 b.
2. Варламов А.А., Гальченко С.А. Управление земельными ресурсами. Учебное пособие. М.: ГУЗ, 2005. – 240 с.
3. Чертовицкий А.С., Базаров А.К. Управление землепользованием. Учебное пособие. Т.: ТИИМ, 2010. – 327 с.
4. Selim Kapor, Hari Eswaran, Winfried Blum. Sustainable Land Management. Springer-Verlag Berlin and Heidelberg GmbH & Co. KG. Germany 2016.
5. Babajonov A.R., Rahmonov Q.R, G'ofirov A.J. Yer kadastro. T.: TIMI, 2008 – 220 b.
6. Avezbaev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. - T.: “Faylasuflar milliy jamiyati”, 2007. – 470 b.
7. O'zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”, T.:“Adolat”, 2015 y.
8. Nigmatov A. Yer huquqi. – T.: “Islom Universiteti”, 2001. – 191 b.
9. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'grisida Milliy hisobot.  
T.:“Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasi, 2020. – 102 b.
10. <https://moodle.tiiame.uz/course/index.php?categoryid=178>

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

